


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

**60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari
bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi ...	4
1.2.1.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	4
1.2.3.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	8
	Kelishuv varag'i	

1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) “Qishloq xo‘jaligi” ta‘lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, er, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi uchun ekinlarning yangi navlari va ularning sifatli urug‘larini etishtirish; qishloq xo‘jaligi ekinlarining seleksiyasi va urug‘chiligi jarayonlarini jadallashtirish; qishloq xo‘jaligi ekinlari mahsulotlari hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

1.2.2. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona, va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- urug‘chilikda xususiy tadbirkorlikning samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- xususiy seleksiya ishlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- seleksiya va urug‘chilikda qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- seleksiya va urug‘chilik korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

60811200 – *Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladilar. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60811200 – *Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkilish - boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:
- axborot – tahliliy faoliyat:
- ilmiy - tadqiqot faoliyat:
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60811200 – *Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60811200 – *Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkilish – boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

seleksiya va urug'chilikka tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

- boshqaruv qarorni qabul qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida seleksiya va urug'chilikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;

- kasbiy muammolar echimini topish;

- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholashni amalga oshirish.

- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini yuqori darajada tashkil etish;

- qishloq xo'jalik ekinlariga ishlov berish va urug'larini yig'ishtirib olish texnologik xaritasini tuzish, serhosil navlarni tanlash texnologiyasi asosida ishni tashkil qilish va sifatini nazorat qilish;

- qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligini yuritish, urug' olish uchun ekilgan qishloq xo'jalik ekinlari maydonlarida aprobatsiya o'tkazish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

- xizmat ko'rsatish sohasi meyoriy- huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

- Qishloq xo'jalik ekinlarini yaxshi navlarini tanlash, urug'larni ekishga tayyorlashda uslubiy va amaliy yordam berish;

- Qishloq xo'jalik ekinlarini navlarini tanlash va ularning urug'larini etishtirish texnologiyasi bo'yicha maslahatlar berish.

Axborot – tahliliy faoliyatida:

- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chilik ishlari bo'yicha yo'nalishlar va usullar haqida, tajriba maydonlariga ta'sir etadigan omillar to'g'risida ma'lumot to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish.

- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chilik ishlarini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilish, rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, jarayonning tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish:

- seleksion va urug'chilik ekinzorlarida agrotexnik tadbirlari bo'yicha texnologik xaritasini ishlab chiqish va boshqarish. Agrotexnik tadbirlarning ko'rsatgichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish:

- loyihalar samaradorligini baholash:

- axborot – tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash:

- Qishloq xo'jalik ekinlarini almashlab ekish tizimini ishlab chiqish va ularni samardorligini baholash.

Ilmiy – tadqiqot faoliyatida:

qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish;

berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;

qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

respublika va xorijda chop etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligiga oid ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rganish;

ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- xususiy urug'chilik bo'yicha loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- urug'chilik firmalarni tashkil etish, rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish

ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- seleksiya va urug'chilikni samarali yuritishni tashkil etish;

- seleksiya va urug'chilik ishchi kuchi, texnika vositalari boshqa materiallarni xisoblay bilishi;

- urug'chilikni tashkil etish va joylashtirish uchun er maydonini taqsimlanishini;

- urug'chilikni etishtirish uchun eng yuqori xosilli navlarni, eng samarali texnika vositalarini tanlay olishni;

- qishloq xo'jalik ekinlar navlarini tanlash, ko'paytirish va etishtirish texnologiyasini;

- tadqiqot natijalarini ishlanmalarni tadbiq etishda kadrning qobiliyatiga ega bo'lishi kerak

- seleksiya va urug'chilikni takomillashtirish bo'yicha innovatsion ishlanmalar ma'lumotlarni izlab topish va amalga oshirishini;

- mehnat jamoasining mehnati ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llay olishi;

- ish sifati uchun mas'uliyatni xis qilish, o'z bilimlari va maxoratlaridan sifatni boshqarish bo'yicha foydalana olish;

- atrof muxitni muxofaza qilish, mehnat faoliyati xavfsizligini ta'minlash, jaroxatlanish va kasbiy kasalliklar oldini olish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirishni ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Seleksiya, urug'chilik, nav, urug', o'simlik, ekin, ko'paytirish, tanlash, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriyatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-izlanish, servis xizmati, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, texnologik ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat atestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

КЕЛИШУВ ВАРАҒИ

ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:



Тошкент давлат аграр университети

Ректор Б.А.Сулаймонов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.

КЕЛИШИЛГАН

Ўзбекистон Республика Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва илғор технологиялари таъбиқ этиш

маркази

Директори в.б. М.Ҳасанов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.



Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирининг иқтисод, Инновацион ривожланиш ва инвестициялар масалалари

маслаҳатчиси

А.Шукуров

2021 йил « 20 » 08

М.Ў.



Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш илмий тадқиқот ИТИ

Директори А.Э.Равшанов

2021 й. « 19 » 08

М.Ў.



ЎзФА. Ўсимликлар генетикаси ва экспериментал биологияси институти

Директори А.А.Наримонов

2021 йил « 19 » 08

М.Ў.



Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Ректори К.Комилов

2021 й. « 19 » 08

